

XII. KORXONA VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TARIFI

(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)

(Adliya Vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi)


Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, 2021- yilning 1 oktabr holatiga ro'yxatga olingan yuridik shaxslar soni (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) 35 973 taga etdi, shundan faoliyat ko'rsatayotganlar soni 34 862 tani yoki jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning 96,9 % ni tashkil qildi.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Namangan shahri (33,6 %), Chust (8,4 %), Namangan (6,9 %) va Uychi (6,6 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Ro'yxatga olingan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi *(2021- yilning 1 oktabr holatiga)*

| | Ro'yxatga olingan | | Faoliyat ko'rsatayotgan | |
|---------------------|-------------------|------------------------------|-------------------------|------------------------------|
| | birlik | jamiga nisbatan ulushi, % da | birlik | jamiga nisbatan ulushi, % da |
| Viloyat jami | 35 973 | 100,0 | 34 862 | 100,0 |
| Namangan sh. | 12 071 | 33,6 | 11 564 | 33,2 |
| Mingbuloq | 1 613 | 4,5 | 1 579 | 4,5 |
| Kosonsoy | 2 171 | 6,0 | 2 121 | 6,1 |
| Namangan t. | 2 480 | 6,9 | 2 436 | 7,0 |
| Norin | 1 760 | 4,9 | 1 720 | 4,9 |
| Pop | 2 256 | 6,3 | 2 216 | 6,4 |
| To'raqo'rg'on | 2 264 | 6,3 | 2 218 | 6,4 |
| Uychi | 2 392 | 6,6 | 2 324 | 6,6 |
| Uchqo'rg'on | 2 125 | 5,9 | 2 081 | 6,0 |
| Chortoq | 2 008 | 5,6 | 1 930 | 5,5 |
| Chust | 3 014 | 8,4 | 2 913 | 8,3 |
| Yangiqo'rg'on | 1 819 | 5,0 | 1 760 | 5,1 |

Ro'yxatdan o'tgan subyektlarning hududlar bo'yicha ulushi, % da
 (2021- yilning 1 oktabr holatiga)




- | | | | |
|----------------|-------------|-----------------|-----------------|
| ■ Namangan sh. | ■ Mingbuloq | ■ Kosonsoy | ■ Namangan t. |
| ■ Norin | ■ Pop | ■ To'raqo'rg'on | ■ Uychi |
| ■ Uchqo'rg'on | ■ Chortoq | ■ Chust | ■ Yangiqo'rg'on |

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi savdo (jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning (30,7 %), sanoat (21,4 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (8,3 %) hamda qurilish (7,3 %) sohalariga to'g'ri keladi.


Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalari iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
(2021- yilning 1 oktabr holatiga)

| | Ro'yxatga olingan | | Faoliyat ko'rsatayotgan | |
|--|-------------------|------------------------------|-------------------------|------------------------------|
| | birlik | jamiga nisbatan ulushi, % da | birlik | jamiga nisbatan ulushi, % da |
| Jami | 31 512 | 100,0 | 30 526 | 100,0 |
| <i>shu jumladan:</i> | | | | |
| Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi | 2 958 | 9,4 | 2 894 | 9,4 |
| Sanoat | 7 693 | 24,4 | 7 466 | 24,5 |
| qurilish | 2 627 | 8,3 | 2 544 | 8,3 |
| Savdo | 11 034 | 35,0 | 10 635 | 34,8 |
| Tashish va saqlash | 1 180 | 3,7 | 1 156 | 3,8 |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 1 625 | 5,2 | 1 554 | 5,1 |
| Axborot va aloqa | 515 | 1,6 | 505 | 1,7 |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 623 | 2,0 | 609 | 2,0 |
| Boshqa turlari | 3 257 | 10,4 | 3 163 | 10,4 |

Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalari soni
 (tashkiliy-xuquqiy shakli bo'yicha
 2021- yil 1 oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Mas'uliyati cheklangan jamiyati




Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Mas'uliyati cheklangan jamiyat deb, bir yoki bir necha shaxs tomonidan tasis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) tasis xujjatlari bilan belgilab qo'yilgan miqdordagi ulushlarga bo'lingan jamiyat tan olinadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamoat faoliyati bilan bo'lib zarar uchun o'zlari qo'shgan hissalarini qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismining doirasida solidar javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning firma nomi jamiyatning nomini, shuningdek "mas'uliyati cheklangan" degan so'zlarni o'z ichiga olishi kerak.

Oilaviy korxonalar soni
(2021- yil 1 oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2021- yil 1 oktabr holatiga ko'ra 1 231 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 306 taga yoki 1,3 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 1 176 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 288 taga yoki 1,3 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 293 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 113 taga yoki 27,8 foizga kamayganligini ko'rish mumkin.

- Ro'yxatdan o'tgan
- Faoliyat ko'rsatayotgan
- Yangi tashkil etilgan

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining xududlar kesimida soni
(2021- yil 1 oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni
(2021- yil 1 oktabr holatiga ko'ra, birlikda)


Ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2021- yil 1 oktabr holatiga ko'ra 21 796 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 4 376 taga yoki 125,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 21 238 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 4 210 taga yoki 124,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 3 977 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 414 taga yoki 111,6 % ga oshganligini ko'rish mumkin.




Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni
(2021- yil 1 oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




2021- yil 1 oktabr holatiga ko'ra mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning asosiy qismi Namangan shahri 7 919 ta (jamiidagi ulushi 37,3 %), Uychi 1 553 ta (7,3 %), Pop 1 422 ta (6,7 %), Namangan 1 369 ta (6,4 %), Chortoq 1 341 ta (6,3 %), Kosonsoy 1 270 ta (6,0 %), Chust 1 159 ta (5,5 %), Yangiqo'rg'on 1 086 ta (5,1 %) xissasiga to'g'ri keladi.

Aksincha eng kam Mingbuloq 818 ta (3,9 %), To'raqo'rg'on 1 070 ta (5,0 %) tumanlari xissalariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi korxonalari jamiga nisbatan ulushi, foizda




Faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonasi va tashkilotlari soni bo'yicha ma'lumotlar, birlikda



**Ro'yxatga olingan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi**
(2021- yilning 1 oktabr holatiga)


| | Ro'yxatga olingan | | Faoliyat ko'rsatayotgan | |
|--|-------------------|------------------------------|-------------------------|------------------------------|
| | birlik | jamiga nisbatan ulushi, % da | birlik | jamiga nisbatan ulushi, % da |
| Jami | 35 973 | 100,0 | 34 862 | 100,0 |
| <i>shu jumladan:</i> | | | | |
| Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi | 2 983 | 8,3 | 2 918 | 8,4 |
| Sanoat | 7 694 | 21,4 | 7 467 | 21,4 |
| Qurilish | 2 630 | 7,3 | 2 546 | 7,3 |
| Savdo | 11 038 | 30,7 | 10 638 | 30,5 |
| Tashish va saqlash | 1 181 | 3,3 | 1 157 | 3,3 |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 1 628 | 4,5 | 1 557 | 4,5 |
| Axborot va aloqa | 549 | 1,5 | 536 | 1,5 |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 724 | 2,0 | 708 | 2,0 |
| Boshqa turlari | 7 546 | 21,0 | 7 335 | 21,1 |

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da
(2021-yilning 1 oktabr holatiga)**




Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotgan subyektlarning ulushi 96,9 % ni, shu bilan birga jami korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 3,1 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda, bu ko'rsatkich yil boshiga nisbatan taqqoslanganda o'zgarishsiz qolgan.

Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonidan faoliyat ko'rsatayotganlar va faoliyatsizlarning ulushi, % da



2021- yil 1 oktabr holatiga 30 526 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 7 453 ta, oilaviy korxonalar – 1 176 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 21 238 tani va 659 tani boshqa tijorat korxonalarini tashkil etadi.


Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar va xo'jalik yurituvchi subyektlarning tashkiliy huquqiy shakllari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



2021- yil yanvar-sentabr oylarida jami 5 038 ta yangi korxonalar va tashkilotlar ro'yxatga olingan bo'lib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 100,7 foizni tashkil etdi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Namangan shahri (1 362 ta), Chust (451 ta), To'raqo'rg'on (377 ta), Uychi (360 ta), Uchqo'rg'on (350 ta), Chortoq (339 ta) tumanlariga to'g'ri keladi. Eng kamisi esa, Yangiqo'rg'on (261 ta), Kosonsoy (270 ta) va Mingbuloq (281 ta) tumanlariga to'g'ri keladi.


Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar, birlikda
(2021- yilning 1 oktabr holatiga)




Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda
(2021- yilning 1 oktabr holatiga)




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda
(2021- yilning 1 oktabr holatiga)



Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot, birlikda




Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda
(2021- yilning yanvar-sentabr oylarida)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi savdoda 35,7 %, sanoatda 27,0 %, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 10,8 %, qurilishda 6,3 % ni tashkil etadi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da
(2021- yilning yanvar-sentabr oylarida)



2021- yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da

45,1 %



Sanoat

7,5 %



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

23,9 %



Savdo

19,5 %




Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

0,2 %



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar

3,8 %



Boshqa turlar

2021- yil 1 oktabr holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni 30 378 tadan ortiqni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2020- yil mos davriga nisbatan 18,9 % ga oshgan.


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy qismi, yani 10 199 tasi (jami subyektlarning 33,6 %) Namangan shahriga, 2 568 tasi (8,4 %) Chust, 2 189 tasi (7,2 %) Namangan hamda 2 048 tasi (6,7 %) Uychi tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam faoliyat ko'rsatayotganlar esa 1 327 tasi (4,4 %) Mingbuloq, 1 461 tasi Norin, 1 468 tasi (4,8 % dan) Yangiqo'rg'on, 1 668 tasi (5,5 %) Chortoq, 1 793 tasi (5,9 %) Uchqo'rg'on tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining
hududlar bo'yicha soni**

| | 2020- yil 1 oktabr holatiga | | 2021- yil 1 oktabr holatiga | |
|---------------------|-----------------------------|------------------------------|-----------------------------|------------------------------|
| | birlik | jamiga nisbatan ulushi, % da | birlik | jamiga nisbatan ulushi, % da |
| Viloyat jami | 25 547 | 100,0 | 30 378 | 100,0 |
| Namangan sh. | 8 883 | 34,8 | 10 199 | 33,6 |
| Mingbuloq | 1 098 | 4,3 | 1 327 | 4,4 |
| Kosonsoy | 1 548 | 6,1 | 1 842 | 6,1 |
| Namangan t. | 1 909 | 7,5 | 2 189 | 7,2 |
| Norin | 1 156 | 4,5 | 1 461 | 4,8 |
| Pop | 1 536 | 6,0 | 1 869 | 6,2 |
| To'raqo'rg'on | 1 569 | 6,1 | 1 946 | 6,4 |
| Uychi | 1 703 | 6,7 | 2 048 | 6,7 |
| Uchqo'rg'on | 1 441 | 5,6 | 1 793 | 5,9 |
| Chortoq | 1 328 | 5,2 | 1 668 | 5,5 |
| Chust | 2 137 | 8,4 | 2 568 | 8,4 |
| Yangiqo'rg'on | 1 239 | 4,8 | 1 468 | 4,8 |


Faoliyat ko'rsatayotgan jami 30 378 ta kichik tadbirkorlik subyektlarining 10 612 tasi (34,9 %) - savdoda, 7 417 tasi (24,4 %) - sanoatda, 2 884 tasi (9,5 %) - qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida, 2 532 tasi (8,3 %) - qurilishda, 1 553 tasi (5,1 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 1 150 tasi (3,8 %) - tashish va saqlashda, 603 tasi (2,0 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, 505 tasi (1,7 %) - axborot va aloqa sohasida shuningdek, 3 122 tasi (10,3 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa axborot va aloqa hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da**
(2021- yilning 1 oktabr holatiga)



2021- yil yanvar-sentabr oylarida jami 4 882 ta kichik tadbirkorlik subyektlari yangi tashkil etilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,4 foizga kam tashkil etilgan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Namangan shahri (1 284 ta), Chust (443 ta), To'raqo'rg'on (371 ta), Uychi (350 ta), Uchqo'rg'on (348 ta), Chortoq (331 ta), Pop (324 ta) va Namangan (322 ta) tumanlariga, eng kam tashkil etilganlari esa, Norin (318 ta), Mingbuloq (277 ta), Kosonsoy (261 ta) va Yangiqo'rg'on (253 ta) tumanlariga to'g'ri keladi.

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlarining hududlar bo'yicha soni, birlikda




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida eng ko'p tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar savdoda (1 799 ta), sanoatda (1 357 ta), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida (544 ta), qurilishda (315 ta) hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (237 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa, axborot va aloqada (92 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (88 ta) tashkil etilgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash asosida ularning ishlab chiqarish faoliyatini samarali tashkil etish bo'yicha ishlar yetarli darajada tashkil etilmaganligi sababli, faoliyat ko'rsatmayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining jami ro'yxatga olinganlarning umumiy soniga nisbatan ulushi yuqori bo'lmoqda.

Jumladan, 2021- yilning 1 oktabr holatiga Namangan viloyatida jami ro'yxatdan o'tgan kichik tadbirkorlik subyektlarining umumiy sonida faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 3,1 % ni (970 ta) tashkil qilgan, ularning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 200 taga ko'paygan.


Hisobot davrida 909 ta kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati tugatilgan bo'lib, ulardan 188 tasi (jami faoliyati tugatilganlarning 20,7 %) qo'shib olish orqali tugatilgan.

**Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlarining
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da
(2021- yil yanvar-sentabr)**



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar. 2021- yil 1 oktabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 281 tani tashkil etgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 26 taga yoki 10,2 % ga o'sgan. Shuningdek, Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 182 tasi qo'shma korxonalar, 99 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda
(2021- yilning 1 oktabr holatiga)



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda
(2021- yilning 1 oktabr holatiga)



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining asosiy qismi Namangan shahar 87 ta (31,0 %), Kosonsoy 29 ta (10,3), Pop 28 ta (10,0 %), Chortoq 26 ta (9,2 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida korxonalar Mingbuloq 7 ta (2,5), Uchqo'rg'on 10 ta (3,6 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxonalarining hududlar bo'yicha soni va ulushi**
(2021- yilning 1 oktabr holatiga)

| | birlik | Jamiga nisbatan ulushi % da |
|---------------------|------------|--------------------------------|
| Viloyat jami | 281 | 100,0 |
| Namangan sh. | 87 | 31,0 |
| Mingbuloq | 7 | 2,5 |
| Kosonsoy | 29 | 10,3 |
| Namangan t. | 15 | 5,3 |
| Norin | 12 | 4,3 |
| Pop | 28 | 10,0 |
| To'raqo'rg'on | 15 | 5,3 |
| Uychi | 19 | 6,8 |
| Uchqo'rg'on | 10 | 3,6 |
| Chortoq | 26 | 9,2 |
| Chust | 20 | 7,1 |
| Yangiqo'rg'on | 13 | 4,6 |


Faoliyat ko'rsatayotgan 281 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha olib qaraydigan bo'lsak, 139 tasi (49,5 %) sanoat, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 40 ta (14,2 %), 35 ta (12,5 %) savdo, 20 tasi (7,1 %) qurilish, 13 tasi (4,6 %) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 8 tasi (2,8 %) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 3 tasi (1,1 %) tashish va saqlashda hamda 23 tasi (8,2 %) boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi va savdo faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa axborot va aloqa, tashish va saqlash hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni va ulushi**
(2021- yilning 1 oktabr holatiga)

| | birlik | Jamiga nisbatan ulushi, % da |
|--|------------|------------------------------|
| Jami | 281 | 100,0 |
| <i>shu jumladan:</i> | | |
| Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi | 40 | 14,2 |
| Sanoat | 139 | 49,5 |
| Qurilish | 20 | 7,1 |
| Savdo | 35 | 12,5 |
| Tashish va saqlash | 3 | 1,1 |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 8 | 2,8 |
| Axborot va aloqa | - | - |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 13 | 4,6 |
| Boshqa turlari | 23 | 8,2 |

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining ulushi, % da
(2021- yilning 1 oktabr holatiga)



2021- yil yanvar-sentabr oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarining soni 26 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 12 taga kamaygan yoki 68,4 foizni tashkil qilgan.

Bunda, Xitoy Xalq Respublikalari – 7 ta, Turkiya – 5 ta, Rossiya Federatsiyasi – 4 ta, Hindiston Respublikasi – 3 ta, Janubiy Koreya, va Pokiston Islom Respublikasi Turkmaniston 2 – tadan, Afg'oniston, Ukraina va Tojikiston Respublikalari – 1 tadan yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan.


Viloyatdagi 26 ta yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Namangan shahar (11 ta), Uchqo'rg'on, Chortoq va Chust (3 ta) dan Norin va Pop tumanlari (2 tadan), Kosonsoy va Yangiqo'rg'on tumanlari (1 tadan) hissalariga to'g'ri keladi. Mingbuloq, Namangan, To'raqo'rg'on va Uychi tumanlarida xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tashkil etilmagan.

**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning
hududlar kesimidagi soni va ulushi
(2021- yil yanvar-sentabr)**


| | birlik | Jamiga nisbatan ulushi, % da |
|---------------------|-----------|---------------------------------|
| Viloyat jami | 26 | 100,0 |
| Namangan sh. | 11 | 42,3 |
| Mingbuloq | - | - |
| Kosonsoy | 1 | 3,9 |
| Namangan t. | - | - |
| Norin | 2 | 7,7 |
| Pop | 2 | 7,7 |
| To'raqo'rg'on | - | - |
| Uychi | - | - |
| Uchqo'rg'on | 3 | 11,5 |
| Chortoq | 3 | 11,5 |
| Chust | 3 | 11,5 |
| Yangiqo'rg'on | 1 | 3,9 |

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 9 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi va qurilishda 5 tadan, savdoda 4 ta, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda 3 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda
(2021- yil yanvar-sentabr)



2021- yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning davlatlar kesimidagi soni, birlikda



Oilaviy korxonalar. Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni, 2021- yil 1 oktabr holatiga 1 231 tani tashkil etib, ulardan 1 176 tasi yoki 95,5 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan davlat ro'yxatidan o'tganlarning umumiy soniga nisbatan o'rtacha 32,8 % ga oshganligini takidlash mumkin.